

Iqtisodiyotda Tabiiy Resurslardan Foydalanishni Boshqarish Yo'nalishlari

Abdisamatov Shuhratjon Abdinazirovich¹, O'rinov Dilshodjon Ahmadjonovich²

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi globallashtirish jaryonlari jadal rivojlanayotgan davrda har bir mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan ekologiyalashtirishni qo'shib olib borish haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik muammolar, iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, iqtisodiy tuzilma, energiyatejamkor texnologiyalar.

KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi xususiyati to'g'risida so'z yuritiladigan bo'lsa shuni ta'kidlash kerakki, unda globallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi kuzatiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni har bir mintaqada uni ekologiyalashtirish bilan qo'shib olib borish bugungi taraqqiyot bosqichi taqazo qilgan qonuniyatdir. Bu yangi shakllangan qonuniyatning obyektiv asosini ikki narsa tashkil qiladi. Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni yanada jadallashtirish tabiat bilan jamiyat o'rtasida munosabatlarning hozirgi zamon xarakteriga ko'ra keskinlashuvi va unda tabiiy omillarni iqtisodiyotni o'sib borayotgan ehtiyojlarini ta'minlash imkoniyatlarini cheklanganligi oshkor bo'lib qoldi. Ikkinchidan esa antropogen faoliyatning tobora ortib borishi natijasida atrof-muhitni ifloslanishi va uni inson hayot-faoliyatiga salbiy ta'siridir. Shundan kelib chiqib mintaqada tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini aniqlash va ularni xo'jalik faoliyatiga jalb qilishni pirovard iqtisodiy natijalar bilan bog'liq bo'lgan masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Pirovard iqtisodiy natijalar, yaxlit tabiat-mahsulot tizimini tadqiq qilish nuqtai-nazaridan tabiatdan foydalanish samaradorligining tahlilini zarurligi tabiatdan foydalanishni fan sifatida real chegarasini va obyektini yaxshi ko'rsatadi. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti to'g'risida mavjud bo'lgan yondoshuvlarning aksariyati "mikro darajada". Hozirda makroyondashuv, tabiatdan foydalanish iqtisodiyotini qandaydir metafizik sifatida butun milliy iqtisodiyotni rivojlantirishni ekologiyalashtirish, atrof-muhitga bosimni pasaytirish uchun tadqiq qilish kerak. Faqat qadr topgan iqtisodiy tuzilmalar, milliy iqtisodiyot komplekslari va tarmoqlar xususiyatlarini o'rganib, ularning asl holatini aniqlab olgandagina keskinlashayotgan ekologik muammolarni samarali hal qilish mumkin.

Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish va ekologik muammolarni hal qilishda quyidagi ustuvorlik maqsadga muvofiqdir:

- ekologik muammolarni hal qilishda muqobil variantlar;
- resurs tejoychi texnologiyalar;
- bevosita tabiatni muhofaza qilish tadbirlari (masalan, filtrlar o'rnatish, qo'riqlanadigan hududlarni barpo qilish, rekultivatsiya va boshqalar)[1].

Yuqoridagi yo'nalishlar iqtisodiy rivojlanish va o'sishni barqaror tipini shakllantirish masalalarini hal qilishda asosiy rol o'ynaydi. Hozirda tabiatni muhofaza qilish muammolarini hal qilishni eng ekologik

¹ Katta o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston, Farg'ona sh

² Katta o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston, Farg'ona sh



va iqtisodiy samarali yo‘nalishi “tabiatdan tashqari” bo‘lgan ya’ni tabiiy resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi va pirovord maxsulotga aylantiruchi tarmoqlar faoliyatini rivojlantirishdir.

Fikrimizcha, iqtisodiyotda ijobiy tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun samarali tuzilmaviy siyosatni ishlab chiqish zarur. Bu resurslarni hamma turidan samarali foydalanish va ijtimoiy ehtiyojlarni to‘laroq qondirish uchun iqtisodiyotda nisbatlarni shakllantirish, ta‘minlab turish va o‘zgartirish bo‘yicha maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilayotgan tadbirlar тизимидир[2].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiyotni tuzilmaviy-texnologik uyg‘unlashtirish pirovard mahsulotni o‘stirgan holda hozirda samarasiz ishlatilayotgan tabiiy resurslarni 20-30 %ni tejash imkoniyatini beradi[3]. Mamlakatimizda tabiiy resurslarni doimiy isrofgarchilik bilan iste‘mol qilishni asosan energetikada, qishloq xo‘jaligida resurslar taqchilligi ko‘rinishini hosil qiladigan juda katta hajmi kuzatiladi.

Rossiya va rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tabiat sig‘imini 1- va 2-jadvallar bo‘yicha taqqoslash turlicha manzarini ko‘rsatadi. Ya’ni, energiya sig‘imi (t./neft - ekv; 1000 AQSH dollari), SO_x ni chiqarish (YAIM 1000 AQSH doll.ga kg.) va CO₂ chiqarish (YAIM 1000 AQSH doll.ga kg.)[4] ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilinayotgan mamlakatlar ichida Yaponiya, Fransiya, Norvegiya mos ravishda 0,17; 0,3; 0,42, 0,21; 0,9; 0,31 va 0,22; 0,3; 0,32 ko‘rsatkichlar bilan eng yaxshi, Germaniya, Buyuk Britaniya va AQSH mos ravishda 0,21; 1,1; 0,52, 0,20; 1,8; 0,49 va 0,28; 2,3; 0,73 ko‘rsatkichlar bilan o‘rtacha hamda O‘zbekiston va Rossiya mos ravishda 0,54; 3,1; 0,45 va 0,61; 6,0; 1,54 ko‘rsatkichlar bilan eng yomon holatlarni ko‘rsatmoqda. Yoki, Rossiyada 1 tonna qog‘ozga o‘rmon resurslari harajatlari bo‘yicha rivojlangan mamlakatlardan 4-6 marta ortiq (“tuzilmaviy ortiqcha iste‘mol (xarajat) qilish 80% ga yaqin”) ekanligini ko‘rsatmoqda.

1-jadval. Dunyo mamlakatlarida tabiat sig‘imi ko‘rsatkichlari[5]

Mamlakat	Energiya sig‘imi; t./neft-ekv; 1000 AQSH doll.	SO _x ni chiqarish YAIM 1000 AQSH doll.ga kg.	SO ₂ chiqarish, YAIM 1000 AQSH doll.ga kg.
Yaponiya	0.17	0,3	0,42
Germaniya	0,21	1.1	0,51
Fransiya	0.21	0.9	0,31
Norvegiya	0,22	0,3	0,32
Buyuk Britaniya	0,20	1,8	0,49
O‘zbekiston	0,54	3,1	0,45
AQSh	0,28	2,3	0,73
Rossiya	0.61	6.0	1,54

2-jadval. 1 tonna qog‘oz va karton ishlab chiqarish uchun ishlatilgan yog‘och hajmi, m³/t.

Rossiya	32
AQSH	7
Finlyandiya	5
Shvetsiya	6

Keltirilgan ma’lumotlarni shunday talqin qilish mumkinki, N_a yoki ye_a energetika resurslarini iste‘mol qilishning umumiy ko‘rsatkichlari tuzilmasi 10-25 % ga “oqilona” iste‘mol qilishdan N_r (oqilona energiya sig‘imi e_r) 75-90% ga va “tuzilmaviy” ortiqcha iste‘mol qilishdan (tuzilmaviy energiya sig‘imi e_s) iborat.

Iqtisodiyot tuzilmasini energiya tejaydigan tarzda qayta qurishni amalga oshirgan mamlakatlarda mahsulotning energiya sig‘imini qarama-qarshi dinamikasi shakllangan. 1990-2020 yillarda iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti a‘zolari bo‘lgan mamlakatlarda sanoat mahsulotining energiya sig‘imi o‘rtacha 30,5 %ga qisqardi. Ba’zi-bir mamlakatlar iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tez o‘shirishda 20



yilda energiyani iste'mol qilishni deyarli ko'paytirmadilar. Masalan, Daniya 2005 yilga nisbatan energiyani umumiy iste'molini qisqartirgan holda YAIMni 1,5 marta ko'paytirdi[6].

Texnologik ilg'or tarmoqlar rivoj topmagan mamlakatlarda iqtisodiyot nafaqat past samarali, balki tabiatni ekspluatatsiya qilish sektorlari salmog'ini kattaligi tufayli "iflosroq" bo'lib qoladi.

Iqtisodiyotda chuqur tuzilmaviy o'zgarishlar qilish zarurligini postindustrial tuzilmalarda qaror topayotgan va fan sig'imi katta, resursni tejaydigan faoliyat turlari foydasiga o'zgartirgan xorij mamlakatlari tajribasi ko'rsatmoqda.

Bu jihatdan Yaponiyani misol keltirish o'rinalidir. Ushbu mamlakatda urushdan keyingi yillarda ko'mir sanoati rivojlangan. Keyin davrlarda esa neft va gaz energetikasi, qora va rangli metallurgiya, qayta ishlovchi sanoatni jadallashtirilgan tarzda rivojlantirish davri boshlandi. Biroq ko'mir sanoatiga o'xshab bu tarmoqlar ham keyingi tuzilmaviy to'liq bilan keyingi qatorga tushib qoldi, 1980 yillardan boshlab Yaponiya neftni qayta ishlash, qora va rangli metallurgiya, ximiya sanoatini energiya sig'imi katta tarmoqlarini, og'ir mashinasozlik xissasini qisqartirishga o'tdi. Ular o'rniga informatika, yuqori texnologiyalar, elektronika, radiotexnika singari fan sig'imi katta bo'lgan, progressiv tarmoqlar tez rivojlana boshladi. Bunday ijobiy tuzilmaviy o'zgarishlar yapon iqtisodiyotining tabiat sig'imini ancha qisqarishiga, uni (iqtisodiyotni) atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamayishiga olib keldi. Dunyodagi hozirgi zamonda shakllangan ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy vaziyat mavjud bo'lgan tabiiy kapital miqdoridan qat'iy-nazar va unga bog'liq bo'lmagan holda ekologik muammolarni tez va samarali hal qilishni kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'ydi. Bunda tuzilmaviy-texnologik o'zgartirishlarning tabiatni muhofaza qilish imkoniyati juda yuqoridir.

Makro darajada O'zbekiston uchun strategik vazifa iqtisodiy o'sish sifatini yaxshilash bo'lib, u texnologik modernizatsiyaga, halqaro raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va eksportbop tovarlar va xizmatlarni keng doirasini ishlab chiqaruvchi texnologik rivojlangan mamlakatga aylanishiga olib kelishi kerak. Bu bandlik samarasini oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga va aholi daromadlarining ortishi va uni farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni atrof-muhit holati bilan maqsadga muvofiq ravishda uyg'unlashtirishga ko'maklashadi.

XULOSA

Shuni aytish kerakki, O'zbekistonda qabul qilingan "Aholi farovonligini oshirish" strategiyasi butun iqtisodiyotni qamrab olib, aynan shu masalalarni hal qilishni ko'zda tutadi. Chunki tuzilmaviy qayta qurish orqali, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni jadallashtirish ko'zda tutiladi. Strategiyani bunday tarzda yo'naltirilganligi hozirda butun dunyoda asosiy yo'nalish tusini olgan qonuniyatlarga mos keladi. Demak, mamlakatimizda "tabiat-mahsulot" vertikalida ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilishi belgilangan.

Strategiya bo'yicha keyingi yillarda mamlakatimizda iqtisodiy o'sishning asosiy omillari bo'lib quyidagilar xizmat qilishi kerak, deb hisoblaymiz:

- ✓ iqtisodiyotni faol qayta qurish;
- ✓ eksport siyosatini xom ashyo eksportidan yuqori darajada qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotga qayta yo'naltirish;
- ✓ iqtisodiy liberallashtirish siyosatini davom ettirish va iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish;
- ✓ moliyaviy sektorni rivojlantirish;
- ✓ bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish uchun inson kapitaliga investitsiyani ko'paytirish;
- ✓ jamiyatni keng darajada axborotlashtirishni ta'minlash;
- ✓ innovatsion institutlarni barpo qilish;
- ✓ hududlarni kompleks rivojlantirish.



Ushbu maqsadlarda hukumat joylardagi davlat organlari bilan birga mintaqalarda qazib oluvchi va qayta ishlovchi sanoatni hamda mahalliy xom-ashyoni, qishloq xo'jaligi xom ashyosini hamda rekreatsiya resurslari va tabiiy iqlim sharoitlaridan imkon qadar ko'proq foydalanish asosida rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Manba: <http://elibrary.ru/item.asp?id=38305586>
2. Manba: <http://doc4web.ru/ekologiya/polzovaniya>.
3. Экология и экономика природопользования. Под. ред проф. Э.В.Гирусова. М.: ЮНИТИ – 2017, с.191
4. Manba: <http://dlib.rsl/01002565000>
5. Muallif hisob-kitoblari.
6. Dinamika pokazatelya energoyemkosti.
<http://www.geoglobus.ru/ecology/practice7/economics05.php>
7. Таджибаев, З. М. (2019). Экологические аспекты формирования инновационного землепользования. In *Теория и практика корпоративного менеджмента* (pp. 113-122).
8. Таджибаев, З. М. (2023). ЭКОЛОГИЯНИНГ АСОСИЙ ҚОНУНЛАРИ ВА ТАБИАТДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 15-20.
9. Abdisamatov, S. A. (2023). Innovation in Tourism-An Important Factor in Increasing the Level of Socio-Economic Development. *Miasto Przyszłości*, 43, 484-488.
10. Abdisamatov, S. A. (2022). IMPROVING THE EDUCATIONAL SYSTEM AND EFFICIENCY IN UZBEKISTAN IS THE MAIN ISSUE. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 64-66.
11. Абдисаматов, Ш. А. (2019). МАРКЕТИНГОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ. In *Теория и практика корпоративного менеджмента* (pp. 5-8).
12. Urinov, D. A. (2022). Innovation Transfer: Ideas and Developments in the Interpretation of Supply and Demand Functions. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 140-145.
13. Urinov, D. A. (2022). Effective Organization Of Transfer Of Innovations In Higher Education Institutions. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 144-148.
14. Akhmadjonovich, U. D. (2021). System Of Indicators Reflecting The Process Of Innovation Transfer In Higher Educational Institutions. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(11), 1-5.

